

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/05.05.2023.T.07.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

PIROVA RASHIDA QUDRATOVNA

**TEZ BUZILUVCHI QISHLOQ XO‘JALIK MAHSULOTLARINI
SAQLASH MIKROIQLIMINI MOSLASHUVCHAN BOSHQARUV
TIZIMINING ADAPTIV MODELLARI**

05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in technical sciences**

Pirova Rashida Qudratovna

Tez buziluvchi qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash mikroiklimini moslashuvchan boshqaruv tizimining adaptiv modellari 3

Пирова Рашида Кудратовна

Адаптивные модели гибконастраиваемой системы управления микроклиматом хранения скоропортящихся сельхозпродуктов 21

Pirova Rashida Kudratovna

Adaptive models of a flexible microclimate control system for storing perishable agricultural products..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.13/05.05.2023.T.07.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

PIROVA RASHIDA QUDRATOVNA

**TEZ BUZILUVCHI QISHLOQ XO‘JALIK MAHSULOTLARINI
SAQLASH MIKROIQLIMINI MOSLASHUVCHAN BOSHQARUV
TIZIMINING ADAPTIV MODELLARI**

05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4.PhD/T907 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tuit.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yakubov Sabir Xalmuradovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sevinov Jasur Usmonovich
texnika fanlari doktori, professor

Doshanova Malika Yuldashovna
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSs. 13/05.05.2023.T.07.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "____" _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.:(99871) 238-64-43, e-mail: ilmiy_kengash@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.M. Kamilov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, texnika fanlari doktori,
professor, O'zR FA akademigi

N.A. Egamberdiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

N.O. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusinig dolzarbligi va zarurati. Jahonda tez buziluvchi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash mikroiklimini moslashuvchan boshqaruv tizimlarini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Business Tech Talks tahlilchilari yetishtirilgan meva va sabzavotlar savdosi bo‘yicha so‘nggi tahlillarni hamda 2024-yildan 2031-yilgacha bo‘ladigan yangi o‘zgarishlarni keltirib o‘tdilar. Ularning statistik ma‘lumotlariga ko‘ra yetishtirilgan meva va sabzavotlarning global savdosi hajmi 2023-yilda 20 milliard AQSH dollariga yetganligi, kelgusida, “360 market updates” tahlili bo‘yicha 2028-yildan 2031-yilga borib, savdo aylanmasi hajmi 211,24 milliard AQSH dollarini tashkil etishini taxmin qilmoqda, bu esa 2024-2031-yillar davomida CAGR (Compound annual growth rate) – o‘rtacha yillik o‘sish sur‘ati bo‘yicha 5,18 foizni ko‘rsatadi¹. Shu boisdan yetishtirilgan meva va sabzavotlarni aholiga sifatli holatida yetkazish uchun ularni saqlash omborxonalarini tashkil etish hamda omborxonalarining mikroiklimini boshqaruvchi moslashuvchan tizimlarini modellashtirish va takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda tez buziluvchi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash mikroiklimini moslashuvchan boshqaruv tizimlarini takomillashtirish, mahsulotlarning fizik xossalari va tarkibiga muvofiq ravishda ishlov berish omborxona harorat rejimini aniqlash, mahsulotlarni saqlash mikroiklimini ta‘minlashning matematik modeli, mahsulotlarni saqlash omborlari holat o‘zgaruvchilari uchun to‘liq tartibli kuzatuvchini baholash algoritmini ishlab chiqish, mikroiklimni o‘lchash qurilmalarini joylashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada tez buziluvchi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash mikroiklimini o‘ziga xos xususiyatlari, talablari, tamoyillari va mezonlariga asoslanib turli hajmlardagi sabzavotlar omborlarining harorat-namlik rejimlarini boshqarish tizimlarini funksional sintez qilish, mahsulotlarni saqlash omborlarida issiqlik va massa almashinuvi jarayonlarining matematik modelini yaratish, sabzavotlar omborlari harorat-namlik rejimini moslashuvchan boshqarish usulini ishlab chiqishni ilmiy asoslash zarur bo‘lmoqda.

Respublikamizda turli maqsadlarga mo‘ljallangan omborxonalarda turli tarkibli va xossalarga ega tez buziluvchi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash mikroiklimini aniqlash, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash jarayonining adaptiv modelini yaratish, mahsulotlarni saqlash omborlarining dinamik va statik xususiyatlarining analitik tahlillash jarayonlarini boshqarish usullarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida, jumladan “... qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga”² vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan,

¹ 2031 “Fresh Fruits and Vegetables Market Size” | Characteristics and Specifications. 19.01.2024.

<https://www.linkedin.com/pulse/2031-fresh-fruits-vegetables-market-size-characteristics-3qt3f/>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni

tez buziluvchi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash mikroiklimini moslashuvchan boshqaruv tizimlarini takomillashtirish, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash mikroiklimini adaptiv modellarini, mahsulotlarini saqlash omborlarida issiqlik va massa almashinuvi jarayonlarining matematik modelini, omborlarning dinamik va statik xususiyatlarini analitik tahlillash, mahsulotlarni saqlash omborlari holat o‘zgaruvchilari uchun to‘liq tartibli kuzatuvchini baholash algoritmini ishlab chiqish, mikroiklimni o‘lchash qurilmalarini joylashtirishga harorat va namlik rejimini boshqarish tizimini muvofiqlashtirishga mo‘ljallangan ixtisoslashgan matematik ta‘minot va dasturlar majmuasini yaratish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-apreldagi PF-5418-son “Qishloq va suv xo‘jaligi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 17-oktyabrdagi PQ-3978-son “Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 14-martdagi PQ-4239-son “Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 28-yanvardagi PQ-4575-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020—2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 18-martdagi PQ-4643-son “Agrar va oziq-ovqat sohaslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli barcha me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqot ishida qo‘yilayotgan masalani yechishda ikki yo‘nalishdagi ilmiy-nazariy ma‘lumotlarga tayaniladi: birinchisi qishloq xo‘jaligida meva va sabzavotlarni saqlash texnologiyalari bo‘yicha ilmiy ishlar; ikkinchisi texnologik jarayonlarni adaptiv boshqaruv nazariyasi bo‘yicha ilmiy ishlar.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini mavsumiy saqlash jarayonlarini tizimli tahlillash masalalarini yechish algoritmlarini ishlab chiqish va mahsulot saqlash omborxonalarini mikroiklimini boshqaruv tizimini takomillashtirish usullarini tadqiq etishga doir bir qator ilmiy va amaliy natijalar olingan. Jumladan xorijiy olimlardan A.V.Bodunov, R.A.Boxall, D.G.Imashova, V.N.Ivanova, T.I.Pomorseva, M.M.Albegov, Ye.I.Baranchuk, R.K.Magomedov, V.V.Solodovnikov, A.Vittikh, R.A.Cramb va boshqalarning ishlarida ko‘rib chiqilgan. Ularning olib borgan tadqiqot ishlari mazkur dissertatsiya ishining dastlabki bobida tahlil qilib chiqilgan.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini omborxonalarda mavsumiy saqlash jarayonlari texnologiyalarini takomillashtirish, harorat va namlik holatini boshqarish usullarini tadqiq etish bo‘yicha bir qator ilmiy va amaliy natijalar olinishiga quyidagi olimlar

o‘zlarining salmoqli xissalarini qo‘shganlar: M.A.Volkov, V.M.Zimnyakov, V.I.Kondrashov, N.N.Moroz, A.B.Lurye, V.I.Luganskiy, V.R.Taurit, A.N.Ostrikov, N.L.Girnik, M.A.Sheyxov, A.I.Tretyakov va boshqalar. Texnologik jarayonlarni adaptiv boshqaruv nazariyasiga oid ilmiy tadqiqotlar S.Bir, A.G.Aleksandrov, N.V.Antonov, V.A.Vittix, S.V.Gurovning ishlarida ko‘rib chiqilgan.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash tizimi faoliyatini tashkil etish masalalari bo‘yicha F.Jo‘rayev, G.N.Uzoqov, S.T.Tursunov, S.Ya.Sharipov va boshqa olimlar qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash jarayonlarini modelini yaratish, mahsulotlar logistikasi va mahsulot saqlash bino va inshootlarini mikroiklimini tizimli tahlillash algoritmini ishlab chiqish va boshqaruv tizimini takomillashtirish usullarini ishlab chiqishga munosib hissa qo‘shganlar. Murakkab tizimlarda adaptiv boshqarish masalalarini yechish algoritmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo‘yicha V.Q.Qobulov boshchiligida mamlakatimizning yetuk olimlari F.B.Abutaliyev, T.F.Bekmuratov, M.M.Kamilov, N.R.Yusupbekov, H.Z.Igamberdiyev, O.A.Qodirov, P.F.Hasanov, I.X.Siddiqov, O.O.Zaripov va boshqa olimlar tadqiqot olib borganlar.

Shunday bo‘lsa ham tadqiqot doirasida hal etiladigan muammo – tez buziluvchi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sifat ko‘rsatkichlari o‘zgarmagan holda mavsumiy saqlash mezonlari va tamoyillarini shakllantirish, bino va inshootlarini mikroiklimini mahsulot turlari va jarayonlarining modellariga mos ravishda moslashuvchan boshqaruv tizimi yordamida takomillashtirish usullarini ishlab chiqish va mahsulot logistikasini tashkil etish muammolari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining I-2017-4-4–“Axborot tizimlarida ma’lumotlarga intellektual ishlov berish va ishlash modellarini yaratish va joriy etish” (2017-2018) hamda I-2015-4-8–«Axborot kommunikatsiya texnologiyalari tizimida yuqori texnologik virtual OC GNU operatsion tizimini joriy etish» (2017-2019) mavzularidagi loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tez buziluvchi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini mavsumiy saqlash jarayonlarini adaptiv modellarini takomillashtirish, algoritmlarini ishlab chiqish va ular asosida mikroiklimni moslashuvchan boshqaruv tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tez buziluvchi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash infratuzilmasida axborot almashish va ma’lumotlarga ishlov berish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish asosida taqsimlangan parametrlil ob‘yektlar mikroiklimini boshqarish tizimini takomillashtirish;

tez buziluvchi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini mavsumiy saqlash tamoyillari va mezonlarini shakllantirish, mikroiklimni tashkil etuvchi faktorlarni klassifikatsiyalash asosida mahsulotlarni saqlash omborlarida issiqlik va massa almashinuvi jarayonlarining adaptiv modelini ishlab chiqish;

tez buziluvchi qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash mikroiklimi rejimlarining kuzatiluvchanlik shartlarini shakllantirish asosida omborxonalar holati o'zgaruvchilari uchun to'liq tartibli kuzatuvchini baholash va o'lchash qurilmalarini joylashtirish algoritmini ishlab chiqish;

moslashuvchan boshqaruv tizimini funksional sintez qilish modellari, algoritmlari va dasturiy majmuasi asosida turli hajmlardagi sabzavotlar omborlarining harorat-namlik rejimlarini boshqarish tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida tez buziluvchi qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash mikroiklimini boshqaruv tizimi olingan.

Tadqiqotning predmeti tez buziluvchi qishloq xo'jalik mahsulotlarini mavsumiy saqlash omborxonalarida harorat va namlik rejimini ta'minlash uchun xizmat qiladigan avtomatlashtirilgan tizim yaratish usul, model, algoritmi va dasturiy majmuasidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida bashoratlash va faktorli tahlil usullari, kompyuterli modellashtirish, ma'lumotlarga ishlov berish usullari, tizimli tahlillash, tasniflash usullari, matematik statistika, qaror qabul qilish va avtomatlashtirilgan boshqaruv usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash omborxonalarini infratuzilmasida o'lchov qurilmalari va boshqaruv operatori o'rtasida axborot almashish jarayonlarining, hamda mahsulotlarning o'ziga xos tez buziluvchanlik xususiyatlarini tahlil qilish asosida ko'p parametrlilik qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash omborxonalarini mikroiklimini boshqarish tizimini ma'lumotlariga intellektual ishlov berish hisobiga takomillashtirilgan;

qishloq xo'jalik mahsulotlarini omborxonalarda mavsumiy saqlash jarayonlarini boshqarish tamoyillari va mezonlarini shakllantirish asosida omborxonalar mikroiklimni tashkil etuvchi faktorlarni klassifikatsiyalash va mahsulotlarni saqlash omborlarida issiqlik va massa almashinuvi jarayonlarining adaptiv modeli regression tenglamalar ko'rinishida kichik kvadratlar usulida ishlab chiqilgan;

tez buziluvchi qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash mikroiklimi rejimlarining o'lchov qurilmalari yordamida kuzatiluvchanlik shartlarini shakllantirish asosida omborxonalar mikroiklimini dinamik ravishda o'zgarib borishini kuzatuvchi o'lchov qurilmalarini omborxonalar perimetri bo'ylab joylashtirish algoritmi mahsulot turi, hajmi, saqlash muddatiga muvofiq ishlab chiqilgan;

moslashuvchan boshqaruv tizimida modellarni umumlashtirish hamda dasturiy majmuasi asosida turli hajmlardagi tez buziluvchi sabzavotlar saqlash omborlarining harorat-namlik rejimlarini boshqarish tizimini ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tez buziluvchi qishloq xo'jalik mahsulotlarini mavsumiy saqlash omborxonalarini mikroiklimi harorat va namlikni mahsulot turiga muvofiq ravishda boshqarish tizimining adaptiv modellari va algoritmlari ishlab chiqilgan;

tez buziluvchi qishloq xo'jalik mahsulotlarini mavsumiy saqlash jarayonlari uchun qurilmalarni joylashtirish algoritmi va vaziyatli boshqarishga muvofiq qaror

qabul qilishga ko‘maklashuvchi dinamik o‘zgaruvchan tarkibli ma’lumotlar bazasi yaratilgan;

tez buziluvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash omborxonalari mikroiklimi harorat va namlik rejimini kuzatish qurilmalarini o‘rnatish mexanizmi, moslashuvchan boshqaruv tizimi va dasturiy majmuasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi uslubiy jihatdan asoslangan amaliy hisob-kitoblar, ko‘p pog‘onali tahliliy tizimlarni qurishning sinalgan usullari va algoritmlarning ishlatilishi, nazariy va amaliy tadqiqotlarning olingan natijalari va ularning o‘zaro muvofiqlashtirilganligi hisoblash eksperimentlari natijalarini umumqabul qilingan mezonlar asosida aynan berilganlar bilan qiyosiy tahlili bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bevosita tez buziluvchi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini mavsumiy saqlash omborxonalari mikroiklimi faoliyati tahlili va kuzatuv tizimida aylanadigan ma’lumotlarga ishlov berish harorat va namlikni saqlash holatining adaptiv modellarini, hamda boshqaruv usullari va algoritmlarini ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tez buziluvchi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini mavsumiy saqlash omborxonalari mikroiklimi harorat va namlikni ta’minlashning adaptiv modelini yaratish, mahsulotlarni saqlash mikroiklimini o‘lchash qurilmalarini joylashtirish, tez buziluvchi mahsulotlar saqlash ombori mikroiklimini boshqarish tizimida kuzatuv qurilmasini tuzilmaviy sintezi va boshqaruv tizimining dasturiy majmuasini ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Tez buziluvchi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini mavsumiy saqlash omborxonalari mikroiklimini moslashuvchan boshqaruv tizimining adaptiv modellari, algoritmlari va dasturiy majmuasi asosida:

- qishloq xo‘jalik mahsulotlarini mavsumiy saqlash omborxonalari mikroiklimini ta’minlash jarayonlarini modellari va harorat-namlikni boshqarish usullari Qashqadaryo viloyati “Kifti-ob mevalari” MCHJ ga joriy etilgan. (Qashqadaryo viloyati Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi 2023-yil 27-oktabrdagi №01/1779 son ma’lumotnomasi). Natijada tez buziluvchi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash mikroiklimi harorat va namlik rejimini moslashuvchan boshqaruv tizimining modellari va adaptiv boshqaruv tizimini joriy etish samaradorlik koeffitsienti $E_n = 0,15$ bo‘lganda 302575 ming so‘m yillik iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini bergan;

- meva va sabzavotlar saqlash omborxonasida saqlab ishlab chiqarish jarayoniga namlantirish moslamasi tizimi va havo shamollatish moslamasi tizimiga ega texnologik qurilmasi Qashqadaryo viloyati “Tagob mevalari nur” MCHJ ning meva va sabzavotlar saqlash omborxonasiga joriy etilgan. (Qashqadaryo viloyati Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi 2023-yil 27-oktabrdagi № 01/1779 son ma’lumotnomasi). Natijada turli hajmlardagi sabzavotlar omborlarida tez buziluvchi mahsulotlarni saqlash mikroiklimini nazorat qilish va boshqaruv tizimini joriy qilish saqlanadigan mahsulotning muddatini 12% ga oshishi imkonini bergan;

- tez buziluvchi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash mikroiklimini boshqarish infratuzilmasida axborot almashish va ma’lumotlarga ishlov berish

jarayonlarining adaptiv modellari va boshqaruvni ta'minlovchi dasturiy majmua Qashqadaryo viloyati Jovuz davlat o'rmon xo'jaligining meva va sabzavotlar saqlash omborxonasiga joriy etilgan. (Qashqadaryo viloyati Qishloq xo'jaligi boshqarmasi 2023-yil 27-oktabrdagi № 01/1779 son ma'lumotnomasi). Natijada qishloq xo'jalik mahsulotlarini mavsumiy saqlash omborxonalari mikroiklimini mahsulot turiga muvofiq holda ta'minlash tez buziluvchi qishloq xo'jalik mahsulotlarini sifat ko'rsatkichlarini saqlagan xolda saqlash muddatini 7-8% ga, sof foyda miqdorini 1,07 baravarga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 22 ta, jumladan 11 ta xalqaro va 11 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 33 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarini asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 1 ta monografiya, 8 ta maqola, 3 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida nashr qilingan hamda 2 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'yekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning "**Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash mikroiklimini boshqarish holatining tizimli tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash (QXMS)ning tizimli yondashuvi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash mikroiklimini boshqarish tizimlari tahlili, jamlangan va taqsimlangan parametrli ob'yektlar boshqaruv tizimlarini baholash usullarining tahlili, tadqiqotning maqsadi va vazifalarning qo'yilishini aniqlashga bag'ishlangan.

Boshqarishning taqsimlangan parametrlarga ega bo'lgan ko'p o'lchamli qishloq xo'jalik ob'yektlarini identifikatsiya qilish muammosini hal qilishga bo'lgan yagona ilmiy asoslangan yondashuvning yo'qligi o'tkazilayotgan tadqiqotlar darajasini pasaytiradi va o'rganilayotgan ob'yektlarning o'ziga xos xususiyatlarini ob'yektiv baholashga imkon bermaydi.

Shu tufayli bunday ob'yektlarni boshqarish sifatida bo'lgan talablarning ortib borishi sababli ular holatini baholash uchun ko'p sondagi o'lchash va kuzatish qurilmalarini jalb qilgan holda taqsimlangan parametrlarni fazodagi va vaqt bo'yicha nazorat qilish masalasi qo'yiladi.

QXMS ob'yektlari mikroiklimi holati vaqtning har lahzasida chekli sondagi parametrlar bilan aniqlanuvchi ob'yektlar va cheksiz sondagi parametrlar bilan aniqlanuvchi taqsimlangan parametrlarga ega bo'lgan ob'yektlar sifatida farqlanadi. Ushbu ob'yektlar fazoda taqsimlangan xususiyatga ega bo'ladi va vaqtning har bir belgilangan lahza $t \in (0, T)$ dagi holati $x \equiv (x_1, x_2, x_3) \in \tau$ fazoviy koordinatalarning ma'lum funksiyasi yoki funksiyalar tizimi yoki jamlangan parametrlarning chekli soni bilan ifodalanadi. Taqsimlangan parametrlar fazoviy koordinatalar va vaqt funksiyalarining ma'lum jamlanmasi bilan xarakterlanadi.

Faraz qilaylik, ob'jektga kiruvchi $x = x(x_1, x_2, \dots, x_n)$ parametrlar; z – tasodifiy ta'sir ko'rsatuvchi parametrlar $z = z(z_1, z_2, \dots, z_m)$ va u – boshqaruvchi parametrlar $u = u(u_1, u_2, \dots, u_s)$ asosida natijaviy parametr $y = y(y_1, y_2, \dots, y_k)$ ko'rsatkichlariga erishiladi. Xususiyl holda bu jarayonning matematik ifodasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$y = f(x, u, z)$$

Bunda boshqaruvchi parametrlar u - mahsulot harorati, mahsulot namligi, havo harorati, havo namligi; z -tasodifiy parametrlar - mahsulot turining o'zgarishi, boshqaruv tizimini ishdan chiqishi, nazorat datchiklarini ishlamasligi, ma'lumot bilan ta'minlanmaganlik, x – kiruvchi parametrlar- mahsulot uyumi orqali havo sarfi, ventilyatsiya qilinayotgan havo harorati, ventilyatsiya qilinayotgan havo namligi va hokazo. Ularning har biriga chegaraviy shartlar qo'yiladi.

$$x_i^- \leq x_i \leq x_i^+; u_j^- < u_j < u_j^+; z_e^- \leq z_e \leq z_e^+,$$

Chiquvchi parametr y sifatida QXMS omborxonada havosining nisbiy namlik darajasi, saqlanayotgan mahsulot harorati, omborxonada havosining harorati, energiya sarfi qaralishi mumkin. Natijada tadqiqot masalasi talab etilgan namlik y^* ni chegaraviy shartlar asosida ta'minlashdan iborat bo'ladi. Buning uchun QXMS omborxonada mahsulot saqlash jarayonining matematik modeli yaratiladi va talab etilgan namlik darajasi y^* bilan solishtiriladi.

$$|y^* - y| \leq \varepsilon.$$

Ushbu tengsizlik tekshirib boriladi va o'rnatilgan namlik darajasi bajarilishi uchun boshqaruv parametrlari o'zgartirib, boshqarilib turadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi **“Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash mikroiklimini modellarini ishlab chiqish”** nomli bobida jarayonlar tenglamalarini taqsimlangan parametrlarga ega bo'lgan tizim tenglamalari sifatida chiqarishda uzluksiz davom ettirish tamoyilidan foydalaniladi. Bu tamoyilning mohiyati chekli hajmlar uchun olingan funksionallarning xususiyatlari har qanday kichik va katta hajmlar uchun ham o'rinli bo'lishidan iborat. Bu tamoyildan foydalangan holda birlik hajmda aniqlangan (cheksiz kichik hajmga kiritilgan) funksional sifatida tushuniluvchi “funktionalning holat zichligi” tushunchasi kiritiladi. Funksionallar o'rtasidagi nisbatlarni birlik hajmdagi holatni ifodalashga qo'llagan holda taqsimlangan parametrlarga ega bo'lgan jarayonlar tenglamalariga erishiladi. Bu tenglamalarda vaqtdan tashqari mustaqil o'zgaruvchilar – birlik hajm massalar markazi koordinatalari qatnashadi. Bu xususiyl hosilali differensial tenglamalarga olib keladi.

Ob'yektning matematik modeli holati o'lchovlari yoki o'lchashlarni modellashtirish jarayonini quyidagi chiziqli operator yordamida amalga oshiriladi:

$$\psi_i(\xi, t) = \int_{\tau} \sum_{j=1}^n K_{ij}(\xi, x) \varphi_j(x, t) d\tau \quad (i = 1, 2, \dots, m) \quad (1)$$

bu yerda $\psi_i = \varphi_j(x, t)$ - ob'yekt holatini tavsiflovchi funksiyalar, $\varphi_i = \psi_i(\xi, t)$ - o'lchash natijasi, t - vaqt, $x = (x_1, x_2, x_3)$ - jarayon boradigan τ soha nuqtalarining koordinatalari, $\xi = (\xi_1, \xi_2, \xi_3)$ - τ soha nuqtasi kabi talqin qilish mumkin bo'lgan qandaydir parametr, ya'ni $\xi \in \tau$. Chiziqli operator (1) yordamida o'lchash natijasida belgilangan t vaqt lahzasida $\psi_i = \psi_i(\xi, t)$ - fazoviy koordinatalar funksiyasini, ya'ni taqsimlangan parametrni olamiz. Ob'yekt holatini (1) ga ko'ra aniq o'lchash mumkin, masalan, $K_{ii}(\xi, x) = \delta(\xi - x)$ bo'lganda, bu yerda $\delta(\xi - x) - \delta$ - Dirak funksiyasi va $K_{ij}(\xi, x) = 0$, agar $i \neq j$ bo'lsa, $\psi_i(x, t) = \varphi_i(x, t)$ ($i = 1, 2, \dots, n$) ni olamiz, bu holatni aniq o'lchanishini anglatadi. Bu yerdan ξ ni τ sohadagi nuqta sifatida qarash maqsadga muvofiqligi kelib chiqadi. $K_{ij}(\xi, x) = K_{ij}(x)$ ning xususiy holida (1) ifoda quyidagi funksionalga keltiriladi:

$$\psi_i(t) = \int_{\tau} \sum_{j=1}^n K_{ij}(x) \varphi_j(x, t) d\tau \quad (i = 1, 2, \dots, m), \quad (2)$$

bu yerda $\varphi_i = \psi_i(t)$ jamlangan parametr bo'lib hisoblanadi va u ob'yekt holati to'g'risida faqat to'liq bo'lmagan ma'lumotlar beradi. Uni qandaydir holat yoki holatlarning chiziqli kombinatsiyasi sifatida tushunish mumkin. $m = n = 1$ bo'lganida quyidagiga erishamiz:

$$\psi(t) = \int_{\tau} K(x) \varphi(x, t) d\tau. \quad (3)$$

Agar $\rho = \varphi(x, t)$ - massa zichligi va $K(x) = 1$ bo'lsa, u holda $\psi(t) = \int_{\tau} \rho d\tau = M$ ifoda massani beradi. Agar $K(x) = \frac{x_i}{M}$ bo'lsa, u holda $\psi_i(t) = \frac{1}{M} \int_{\tau} x_i \rho d\tau$ - massa markazi koordinatalari va h.k. Shunday qilib (3) dagi ob'yektning bir qator umumiy parametrlari (1) dan xususiy hol sifatida olinadi.

Faraz qilaylik, quyidagi tenglikni qanoatlantiruvchi shakl almashtirish matritsasi T mavjud bo'lsin:

$$TA - FT = H. \quad (4)$$

U holda $\bar{z}(0) = T\bar{x}(0)$ bo'lganda barcha $t \geq 0$ yoki, yanada umumiy holda, $\bar{z}(0) \neq T\bar{x}(0)$ bo'lganida, ya'ni quyidagi tenglik bajarilganida $\bar{z}(t) = T\bar{x}(t)$ munosabat o'rinlidir:

$$\bar{z}(t) = T\bar{x}(t) + e^{Ft} [\bar{z}(0) - T\bar{x}(0)] \quad (5)$$

F matritsa xos qiymatlar manfiy bo'lganida (5) ning ikkinchi hadi bilan ifodalanuvchi kuzatuvchi qurilmaning erkin tebranishlari so'nadi va bu qurilmaning holatlar vektori $\bar{z}(t)$ $T\bar{x}(t)$ vektorga yaqinlashadi. Munosabatlar (5) ning o'rinli ekanligini quyidagicha isbotlash mumkin. Tenglamaning chap tomonini T ga ko'paytirgan va olingan natijani tenglamadan ayirgan holda quyidagini olamiz:

$$\dot{\bar{z}}(t) - T\dot{\bar{x}}(t) = F\bar{z}(t) + H\bar{x}(t) - TA\bar{x}(t).$$

H o'rniga (4) ifodani qo'ygan holda yechimi (5) bo'lgan tenglamaga kelamiz:

$$\dot{\bar{z}}(t) - T\dot{\bar{x}}(t) = F[\bar{z}(t) - T\bar{x}(t)].$$

A va F matritsalar umumiy xos qiymatlarga ega bo'lmagan hollarda (4) tenglamaning yagona yechim T ga egaligini isbotlash mumkin. Shunday qilib ildizlari G_1 ob'yekt ildizlaridan farq qiluvchi biror-bir tizim G_2 ning holatlar vektori z ning G_1 ob'yekt holatlar vektori bilan $\bar{z} = T\bar{x}$ munosabat orqali bog'langanligi bu ob'yekt uchun kuzatuvchi qurilma sifatida xizmat qilishi mumkin, bu yerda (4) tenglamadan aniqlanuvchi T matritsa G_1 va G_2 tizimlarning parametrlariga bog'liq bo'ladi. G_1 va G_2 tizimlar tartiblarining albatta bir xil bo'lishi shart emasligini ta'kidlab o'tish lozim.

Qo'zg'atilgan ob'yekt, ya'ni nolga teng bo'lmagan chiquvchi signal $\bar{u}(t)$ ga ega bo'lgan (agar bu signalni o'lchash mumkin bo'lsa) ob'yekt uchun ham kuzatuvchi qurilmani olish qiyin emas. Buning uchun kiruvchi signal $\bar{u}(t)$ ni ham kuzatuvchi qurilmaga keltirish lozim. Haqiqatdan ham agar G_1 ob'yekt

$$\dot{\bar{x}}(t) = A\bar{x}(t) + B\bar{u}(t), \quad (6)$$

tenglama bilan ifodalansa, u holda ko'rsatilgan tarzda to'ldirilgan kuzatuvchi qurilma tenglamasi

$$\dot{\bar{z}}(t) = F\bar{z}(t) + H\bar{x}(t) + TB\bar{u}(t) \quad (7)$$

baribir (5) ifodaning yechimiga ega bo'ladi. Bunga (5) tenglamalar uchun o'tkazilganga o'xshash bo'lgan shakl almashtirishlar yordamida ishonch hosil qilish mumkin. Bu yerdan avval ob'yektни erkin deb faraz qilgan, keyin esa (7) da ko'rsatilgani kabi kiruvchi signalni qo'shgan holda qo'zg'algan ob'yekt uchun kuzatuvchi qurilmani sintez qilish mumkinligi kelib chiqadi.

To'liq tartibli kuzatuvchilar. Agar shakl almashtirish matritsasi T birga teng bo'lsa, u holda $\bar{z}(t) = T\bar{x}(t) = E_n\bar{x}(t) = \bar{x}(t)$. Bunday hollarda kuzatuvchi qurilma ob'yektning holatlar vektorini tanib oladi. $T = E_n$ talabi kuzatuvchi qurilma parametrlarini, ya'ni uning F va H matritsalarini tanlash bilan bajariladi. $T = E_n$ ni (4) ga qo'ygan holda $F = A - H$ ni olamiz. Bu yerdan G_2 kuzatuvchining G_1 kuzatilayotgan ob'yekt bilan bir xil tartibga egaligi kelib chiqadi.

Ob'yektning o'lchanayotgan chiquvchi signallari vektori sifatida H matritsasi ham, kuzatuvchi qurilma kirishining tuzilishi sifatida ham aniqlanadi. Agar r - o'lchamli chiqishga ega bo'lgan ob'yekt

$$\dot{\bar{x}}(t) = A\bar{x}(t), \quad \bar{y}(t) = C\bar{x}(t), \quad (8)$$

Tenglamalar bilan, kuzatuvchi

$$\dot{\bar{z}}(t) = F\bar{z}(t) + K\bar{y}(t), \quad (9)$$

tenglama bilan aniqlansa, u holda $H = KC$ bo'ladi. Kuzatuvchini sintez qilishda $(r \times n)$ o'lchamli C matritsa o'zgarmas, $(n \times r)$ o'lchamli K matritsa esa ixtiyoriy. Shuning uchun identifikatsiya qilish kuzatuvchisi G_2 K matritsani tanlash bilan bir qiymatli aniqlanadi va quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\hat{\dot{x}}(t) = (A - KC)\hat{x}(t) + K\bar{y} + B\bar{u} \quad \text{yoki} \quad \hat{\dot{x}} = A\hat{x} + K[y - C\hat{x}] + Bu. \quad (10)$$

Kuzatuvchi holat vektori (10) ning o'lchami ob'yekt holat vektorining o'lchamiga tengligi sababli bunday kuzatuvchilar to'liq tartibli deb ataladi.

Pasaytirilgan tartibli kuzatuvchilar. Kuzatuvchining o'lchamini o'lchanayotgan vektor \bar{y} komponentlari sonini (10) bo'yicha kamaytirish mumkin. Bunday kuzatuvchi pasaytirilgan tartibli deb ataladi. Uni ifodalovchi tenglamani quyidagi farazlar asosida olish mumkin. Aytaylik, (10) tizim to'liq kuzatiluvchan bo'lsin. Quyidagi shakl almashtirish yordamida $(n - l)$ o'lchamlilikning yangi holatini kiritamiz (bu yerda $l - \bar{y}(t)$ chiqishning o'lchami):

$$z(t) = Tx(t), \quad (11)$$

bu yerda $T - (n - l) \times n$ o'lchamli matritsasi shunday tanlab olinadiki, $(n \times n) - \begin{bmatrix} T \\ C \end{bmatrix}$ matritsasi buzilib ketmaydigan bo'lsin. U holda $x(t)$ $z(t)$ va $y(t)$ orqali ifodalanadi:

$$x = \begin{bmatrix} T \\ C \end{bmatrix}^{-1} \begin{bmatrix} z(t) \\ y(t) \end{bmatrix}. \quad (12)$$

Faraz qilaylik, $\begin{bmatrix} T \\ C \end{bmatrix}^{-1}$ matritsani quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin bo'lsin:

$$\begin{bmatrix} T \\ C \end{bmatrix}^{-1} = [\Omega_1 : \Omega_2], \quad (13)$$

bu yerda $\Omega_1 - (n - l) \times n$ o'lchamli matritsa, $\Omega_2 - (n \times l)$ o'lchamli matritsa. U holda $x(t)$ uchun quyidagi ifodani olamiz:

$$x(t) = \Omega_1 z(t) + \Omega_2 y(t). \quad (14)$$

$z(t)$ ni aniqlash uchun (11) ni differensiallaymiz va quyidagini olamiz:

$$\dot{z} = (TA\Omega_1 + \dot{T}\Omega_1)z + (TA\Omega_2 + \dot{T}\Omega_2)y(t), \quad (15)$$

bu yerda (13) ga quyidagi tenglik bajariladi:

$$\Omega_1 T + \Omega_2 C = E_n, \quad (16)$$

$$\begin{bmatrix} T \\ C \end{bmatrix}^{-1} |\Omega_1, \Omega_2| = \begin{bmatrix} T\Omega_1 : T\Omega_2 \\ C\Omega_1 : C\Omega_2 \end{bmatrix} = E_n. \quad (17)$$

Bu yerdan quyidagi kelib chiqadi:

$$T\Omega_1 = E_n, T\Omega_2 = 0, C\Omega_1 = 0, C\Omega_2 = E_n. \quad (18)$$

Tenglama (16) lardan va mos holda quyidagini olamiz:

$$(\dot{\Omega}_1 T) + (\dot{\Omega}_2 C) = 0, \quad \dot{T}\Omega_1 = -T\dot{\Omega}_1, \dot{T}\Omega_2 = -T\dot{\Omega}_2. \quad (19)$$

Ushbu nisbatlar yordamida (15) tenglamani shakl almashtirgan holda kuzatuvchi uchun quyidagi ifodani olamiz:

$$\dot{\hat{z}} = (TA\Omega_1 - T\dot{\Omega}_1)\hat{z} + (TA\Omega_2 - T\dot{\Omega}_2)y(t) \quad (20)$$

$$\hat{x} = \Omega_1 \hat{z} + \Omega_2 y(t). \quad (21)$$

Bu algoritmgga mos keluvchi baholash xatosini haqiqiy tizim tenglamasi va kuzatuvchi tizimidan ayirgan holda topamiz. Ularni $\varepsilon_z = \hat{z} - z$, $C_x = \hat{x} - x$ ko'rinishda beramiz. Quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\dot{\varepsilon}_x = [\Omega_1 TA - \Omega_1 T\dot{\Omega}_1 T + \dot{\Omega}_1 T]\varepsilon_x \quad (22)$$

$T\Omega_1 = \dot{T}\Omega_1$ tenglikni (22) ga qo'ygan, keyin esa olingan ifodaga $\Omega_1 TC_x = \varepsilon_x$ tenglik va (16) ni qo'ygan holda yakuniy tarzda quyidagini olamiz:

$$\dot{\varepsilon}_x = (A - \Omega_2 CA - \Omega_2 \dot{C} - \dot{\Omega}_2 C)\varepsilon_x, \varepsilon_x(0) = \varepsilon_{x_0}, \quad (23)$$

bu yerda ε_{x_0} - boshlang'ich holatni baholash xatosi. Kuzatuvchining yaqinlashish tezligini (23) da Ω_2 ni o'zgartirgan holda boshqarish mumkinligini ta'kidlab o'tamiz.

Dissertatsiyaning uchinchi **“Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash jarayonlarini boshqarish usul va algoritmlari”** nomli bobida boshqaruv

ob'yehtining kuzatiluvchanlik shartlarini shakllantirish evolyutsiya tenglamasi, ya'ni holat o'zgaruvchisi tenglamasi bilan ifodalanishi keltirilgan. Bu tizimni keyingi tadqiqotlar uchun qulay bo'lgan o'zgartirilgan ko'rinishda yozamiz:

$$\begin{cases} \frac{\partial T_M}{\partial t} = a_{31}T_h - a_{33}T_M + a_{32}d_h - a_{34}; \\ \frac{\partial T_h}{\partial z} = a_{12}T_M - a_{11}T_h; \\ \frac{\partial d_h}{\partial z} = a_{21}T_M - a_{22}d_h + a_{23}, \end{cases} \quad (24)$$

bu yerda a_j koeffitsiyentlar saqlanayotgan mahsulot va havoning issiqlik fizikasi parametrlari bilan aniqlanadi, ya'ni

$$\begin{aligned} a_{11} &= \left(\frac{\alpha \cdot S}{C_M \rho_M \cdot \varepsilon} + \frac{r \cdot S \cdot \beta \cdot b}{C_M \rho_M} \right); & a_{12} &= \frac{\alpha \cdot S}{C_M \rho_M \cdot \varepsilon}; & a_{13} &= \frac{1,13 \cdot r \cdot S \cdot \beta}{C_M \rho_M}; \\ a_{14} &= \frac{r \cdot S \cdot \beta \cdot a}{C_M \rho_M}; & a_{21} &= \frac{\alpha \cdot S}{v \cdot C_h \rho_h \varepsilon}; & a_{22} &= \frac{\alpha \cdot S}{v \cdot C_h \rho_h \varepsilon}; \\ a_{31} &= \frac{\beta \cdot S \cdot b}{v \cdot \rho_h \cdot \varepsilon}; & a_{33} &= \frac{1,13 \cdot \beta \cdot S}{v \cdot \rho_h \cdot \varepsilon}; & a_{34} &= \frac{a \cdot \beta \cdot S}{v \cdot \rho_h \varepsilon}. \end{aligned}$$

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz: $x_1 = T_h$ - havo harorati; $x_2 = d_h$ - havodagi namlik miqdori; $x_3 = T_M$ - material harorati va (24) tizimni matritsa shaklida yozamiz:

$$\begin{vmatrix} \frac{\partial x_1}{\partial t} \\ 0 \\ 0 \end{vmatrix} + \begin{vmatrix} 0 \\ \frac{\partial x_2}{\partial z} \\ \frac{\partial x_3}{\partial z} \end{vmatrix} + \begin{vmatrix} -a_{11} & a_{12} & 0 \\ a_{21} & -a_{22} & 0 \\ a_{31} & a_{32} & -a_{33} \end{vmatrix} \cdot \begin{vmatrix} x_1 \\ x_2 \\ x_3 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} 0 \\ a_{23} \\ -a_{34} \end{vmatrix}, \quad (25)$$

yoki qisqartirilgan holda:

$$\frac{\partial \bar{x}}{\partial t} + \frac{\partial \bar{x}}{\partial z} + A\bar{x} = \bar{a}. \quad (26)$$

Olingan bog'langan tenglamalar tizimi (26) ni kuzatiluvchanlikka nisbatan tadqiq qilish uchun uni bog'lanmagan ko'rinishga, ya'ni o'zaro bog'liq bo'lmagan tenglamalar tizimiga keltiramiz. Buning uchun quyidagi shakl almashtirishni kiritamiz:

$$\bar{x} = p\bar{y}, \quad (27)$$

bu yerda p - ustunlarida xos vektorlar turuvchi matritsa, A, \bar{y} matritsalar quyidagi funksiyaning mos yangi noma'lumlaridir:

$$\bar{y} = \begin{vmatrix} y_1 \\ y_2 \\ y_3 \end{vmatrix}.$$

Munosabat (27) ning har ikkala tomonini avval t bo'yicha, keyin esa z bo'yicha differensiallagan, olingan munosabatlarni (26) ga qo'ygan va kerakli shakl almashtirishlarni amalga oshirgan holda yangi noma'lum o'zgaruvchilarga nisbatan quyidagi differensial tenglamalar tizimini olamiz:

$$\frac{\partial \bar{y}}{\partial t} + \frac{\partial \bar{y}}{\partial z} + \lambda \bar{y} = \bar{a}. \quad (28)$$

Ushbu (28) da elementlari A matritsaning xos qiymatlari bo'lgan diagonal matritsa. Ular quyidagicha aniqlanadi. A matritsani quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$\begin{vmatrix} -a_{11} - \lambda & a_{12} & 0 \\ a_{21} & -a_{22} - \lambda & 0 \\ a_{31} & 0 & -a_{33} - \lambda \end{vmatrix}, \quad (29)$$

bu yerda λ A matritsaning xos sonlaridir. Ular quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$\lambda^3 - (a_{11} + a_{22} + a_{33})\lambda^2 + (a_{11}a_{22} + a_{11}a_{33} + a_{22}a_{33} - a_{13}a_{31} - a_{21}a_{12})\lambda + a_{13}a_{31}a_{22} + a_{33}a_{21}a_{12} - a_{11}a_{22}a_{33} = 0; \quad (30)$$

a_{ij} ning ma'lum qiymatlarida saqlanayotgan mahsulotning aniq bir turi uchun λ_1 , λ_2 va λ_3 qiymatlarni doimo (30) dan aniqlash mumkin.

Shunday qilib λ_1 , λ_2 va λ_3 ning ma'lum qiymatlarida (30) tenglamalar tizimi bog'lanmaganga aylanadi, ya'ni:

$$\begin{cases} \frac{\partial y_1}{\partial t} + \lambda_1 y_1 = -a_{14}; \\ \frac{\partial y_2}{\partial z} + \lambda_2 y_2 = 0; \\ \frac{\partial y_3}{\partial z} + \lambda_3 y_3 = a_{34}. \end{cases} \quad (31)$$

Shuning uchun (24) tizim uchun kuzatiluvchanlik (31) o'zaro bog'liq bo'lmagan tenglamalar tizimining kuzatiluvchanligiga keltiriladi.

1. Tizim tenglamasi (31) uchun kuzatiluvchanlik:

$$\frac{\partial y_1}{\partial t} + \lambda_1 y_1 = 0, \quad (32)$$

$$\varepsilon_1(t) = h(y_1(z_1, t), y_1(z_2, t) \dots y_1(z_n, t)). \quad (33)$$

Kuzatiluvchanlikning umumiy shartlari (31) va (32) uchun shundan iboratki, (31) tenglama (32) ni kesib o'tishi va bunda jamlangan parametrlarga ega tizim uchun kuzatiluvchanlik shartlari bajarilishi kerak. Yechim:

$$z = z_0 \quad (34)$$

koordinatalar o'qi, ya'ni koordinata o'qlariga parallel bo'lgan to'g'ri chiziqlar bo'ylab

$$\left(\frac{\partial y_1}{\partial t}\right)|_0 = \lambda_1 y_1 \quad (35)$$

ifoda bilan aniqlanadi. Agar jamlangan parametrlarga ega bo'lgan tizimlar uchun koordinatalar o'qlari bo'ylab kuzatuvchanlik shartlarini shakllantirish masalasini ko'rib chiqsak, quyidagi tasdiqni olamiz.

Tizim (31), (35) to'liq kuzatiluvchan bo'lishi uchun har bir xarakteristikaning o'zgarishlar trektoriyasini kesib o'tishi va quyidagi matritsa rangining n ga teng

$$L_0 = |\overline{\Phi}(t_1, 0)^T C_1^T \dots \overline{\Phi}(t_j, 0)^T C_j^T|, \quad (36)$$

bo'lishi zarur va yetarlidir, bu yerda $\overline{\Phi}(t, 0)$ ($n \times n$) o'lchamga ega.

